



# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 3-son

VOLUME 4 / ISSUE 3 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.3.



**Crossref**  
Content  
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

## MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Yurisprudensiya” –  
“Юриспруденция” – “Jurisprudence”  
huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston  
matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda  
1140-sonli guvohnoma bilan davlat  
ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya  
komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent  
davlat yuridik universitetiga tegishli.  
Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal  
materiallaridan foydalanish, tarqatish  
va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan  
amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

### Muharrirlar:

Sh. Jahonov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev,  
K. Abduvaliyeva, Y. Mahmudov,  
M. Sharifova

### Musahhih:

S. Rasulova

### Texnik muharrir:

U. Sapayev

### Dizayner:

D. Rajapov

### Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,  
Sayilgoh ko‘chasi, 35.  
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Veb-sayt:** jurisprudence.tsul.uz

**E-mail:** lawjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1387

Jurnal 24.06.2024-yilda bosmaxonaga  
topshirildi. Qog‘oz bichimi: A4.  
Shartli 10,2 b.t. Adadi: 100.  
Buyurtma raqami: 86.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

## BOSH MUHARRIR

*B. Xodjayev* – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va  
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

## BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

*J. Allayorov* – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy  
boshqarmasi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori,  
dotsent

## MAS‘UL MUHARRIR

*N. Ramazonov* – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘zbek tili  
va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori, dotsent

## TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

*J. Blum* – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori  
(Boston, AQSH)

*M. Vishovatiy* – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

*A. Hoshimxonov* – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti,  
yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

*M. Axmedshayeva* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori,  
yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

*X. Xayitov* – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi  
Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori  
(Toshkent, O‘zbekiston)

*I. To‘raboyev* – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b.,  
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

*S. Xolboyev* – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi  
huzuridagi Sudyalari oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi,  
(Toshkent, O‘zbekiston)

*N. Raxmonkulova* – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti  
dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

*Z. Esanova* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik  
fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

*J. Ne‘matov* – Toshkent davlat yuridik universiteti professori,  
yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

*M. Kurbanov* – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik  
fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

*R. Kuchkarov* – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b.,  
filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ  
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ  
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция – Yurisprudensiya – Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

**Редакторы:**

Ш. Жахонов, Е. Ярмолик,  
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,  
Й. Махмудов, М. Шарифова

**Корректор:**

С. Расулова

**Технический редактор:**

У. Сапаев

**Дизайнер:**

Д. Ражапов

**Адрес редакции:**

100047. Город Ташкент,  
улица Сайилгох, 35.  
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Веб-сайт:** jurisprudence.tsul.uz

**E-mail:** lawjournal@tsul.uz

**Подписной индекс:** 1387

Журнал передан в типографию  
24.06.2024.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 10,2. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 86.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

© Ташкентский государственный  
юридический университет

**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР**

*Б. Ходжаев* – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

**ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА**

*Ж. Аллаёров* – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

**ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР**

*Н. Рамазонов* – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

**ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ**

*Дж. Блум* – доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

*М. Вишоватый* – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

*А. Хошимхонов* – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*М. Ахмедшаева* – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*Х. Хаитов* – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

*И. Турабоев* – доктор философии по юридическим наукам, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*С. Холбоев* – кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Верховном судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

*Н. Рахмонкулова* – доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

*З. Эсанова* – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*Ж. Нематов* – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

*М. Курбанов* – доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

*Р. Кучкаров* – кандидат филологических наук, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” –  
“Юриспруденция” – “Jurisprudence”  
legal scientific and practical journal  
was registered by the Press and Infor-  
mation Agency of Uzbekistan on De-  
cember 22, 2020 with certificate No.  
1140.

The journal is included in  
the list of journals of the Higher  
Attestation Commission under the  
Ministry of Higher Education, Science  
and Innovations of the Republic of  
Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent  
State University of Law. All rights re-  
served. Use, distribution and reproduc-  
tion of journal materials are carried  
out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

**Editors:**

Sh. Jakhonov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev,  
K. Abduvalieva, Y. Makhmudov,  
M. Sharifova

**Proofreader:**

S. Rasulova

**Technical editor:**

U. Sapaev

**Designer:**

D. Rajapov

**Editorial office address::**

100047. Tashkent city,  
Sayilgokh street, 35.  
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

**Website:** review.tsul.uz

**E-mail:** reviewjournal@tsul.uz

**Subscription index:** 1385.

The journal is submitted to the Printing  
house on 24.06.2024.

Paper size: A4.

Cond. p.p. 10,2. Unit: 100.

Order: 86.

Published in Printing house of TSUL.

© Tashkent State University of Law

**CHIEF EDITOR**

*B. Xodjaev* – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of  
Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

**DEPUTY EDITOR**

*J. Allayorov* – Head of the Scientific Department of Tashkent State  
University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences, Associate  
Professor

**EXECUTIVE EDITOR**

*N. Ramazonov* – Head of the Department of Uzbek Language and  
Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy  
in Philology, Associate Professor

**MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD**

*J. Blum* – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law  
(Boston, USA)

*M. Vishovatiy* – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk,  
Poland)

*A. Khoshimxonov* – Associate Professor of Tashkent State University  
of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*M. Axmedshaeva* – Professor of Tashkent State University of Law,  
Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*X. Xayitov* – Professor of the Academy of Public Administration  
under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law  
(Tashkent, Uzbekistan)

*I. Turaboev* – Acting Associate Professor of Tashkent State  
University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent,  
Uzbekistan)

*S. Xolboev* – Associate Professor of the Supreme School of Judges  
under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan,  
Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

*N. Raxmonkulova* – Associate Professor of the University of World  
Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*Z. Esanova* – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor  
of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*J. Ne'matov* – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor  
of Law (Tashkent, Uzbekistan)

*M. Kurbanov* – Associate Professor of Tashkent State University of  
Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

*R. Kuchkarov* – Acting Associate Professor of Tashkent State  
University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent,  
Uzbekistan)

# MUNDARIJA

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.  
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 8 **NARZIYEV OTABEK SADIYEVICH, IGAMBERDIYEVA XURSHIDA XISLATILLAYEVNA**  
O'zbekistonda venchur fondlarni tartibga solishda bank faoliyatidagi qoidalarini qo'llash
- 17 **EGAMBERDIYEV EDUARD XAJIBAYEVICH, SHAIMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA**  
Eksklyuziv blokcheyn va merosxo'rlik huquqi: raqamli merosni boshqarishda zamonaviy yondashuvlar

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI.  
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 26 **KARIMOVA MADINA MIRZADJANOVNA**  
Notarial jarayon tushunchasi va uning xususiyatlari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 34 **XUDOYQULOVA DILOROM XOLOVNA**  
Mamlakatimizda aholining ekologik savodxonligini rivojlantirishda ekologik-huquqiy targ'ibotning o'rni va ahamiyati

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA.  
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 43 **XAYDAROV SHUXRATJON DJUMAYEVICH**  
Insonni uning a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash  
jinoiyati tushunchasi hamda belgilari
- 55 **XUDAYKULOV FERUZBEK XURRAMOVICH**  
Jinoyat huquqida ijtimoiy xavfli harakat tushunchasi, mohiyati va uning belgilari

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI (SOHALAR BO'YICHA)

- 66 **ZIYAMUXAMEDOVA SHAHNOZA TOLKUNOVNA**  
-La +-sh va -lash affiksli so'zshakllar orasidagi omonimiya

YURIDIK FANLARNI O'QITISH

- 77 **ABDURASULOVA QUMRINISA RAIMKULOVNA, UMIRZAKOV BEGZOD ATABOYEVICH**  
Kriminologiya fanining vujudga kelishi, dolzarb vazifalari va rivojlanish istiqbollari

# СОДЕРЖАНИЕ

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

8 **НАРЗИЕВ ОТАБЕК САЪДИЕВИЧ, ИГАМБЕРДИЕВА ХУРШИДА ХИСЛАТИЛЛАЕВНА**

Регулирование венчурных фондов аналогично банковской деятельности в Узбекистане

17 **ЭГАМБЕРДИЕВ ЭДУАРД ХАЖИБАЕВИЧ, ШАИМАРДАНОВА ДИЛАФРУЗ ДИЛМУРАТОВНА**

Эксклюзивный блокчейн и наследственное право: современные подходы к управлению цифровым наследством

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ТРЕТЕЙСКИЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ

26 **КАРИМОВА МАДИНА МИРЗАДЖАНОВНА**

Понятие нотариального процесса и его характерные черты

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

34 **ХУДОЙКУЛОВА ДИЛОРОМ ХОЛОВНА**

Роль и значение экологической правовой пропаганды в развитии экологической информированности населения в нашей стране

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

43 **ХАЙДАРОВ ШУХРАТЖОН ДЖУМАЕВИЧ**

Определение и характеристика преступления принуждения человека к согласию на изъятие у него органов и (или) тканей для трансплантации

55 **ХУДАЙКУЛОВ ФЕРУЗБЕК ХУРРАМОВИЧ**

Понятие, сущность и признаки общественно опасного деяния в уголовном праве

13.00.02 – ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ (ПО ОТРАСЛЯМ)

66 **ЗИЯМУХАМЕДОВА ШАХНОЗА ТОЛКУНОВНА**

Омонимия между словоформами с аффиксами -la + -sh и -lash

ПРЕПОДАВАНИЕ ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

77 **АБДУРАСУЛОВА КУМРИНИСА РАИМКУЛОВНА, УМИРЗАКОВ БЕГЗОД АТАБОВЕВИЧ**

Возникновение, актуальные задачи и перспективы развития науки криминологии

# CONTENTS

---

## 12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 8 **NARZIEV OTABEK SADIEVICH, IGAMBERDIEVA KHURSHIDA KHISLATILLAEVNA**  
Applying banking activity rules to the regulation of venture funds in Uzbekistan
- 17 **EGAMBERDIEV EDUARD KHAJIBAYEVICH, SHAIMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA**  
Exclusive blockchain and inheritance law: modern approaches to digital inheritance management

---

## 12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION AND MEDIATION.

- 26 **KARIMOVA MADINA MIRZADJANOVNA**  
The concept of notarial process and its characteristic features

---

## 12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 34 **KHUDOYKULOVA DILOROM KHOLOVNA**  
The role and significance of ecological legal propaganda in developing the ecological literacy of the population in our country

---

## 12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY. CRIMINAL PROCEDURAL LAW

- 43 **SHUKHRATJON JUMAEVICH KHAYDAROV**  
Definition and characteristics of the crime of forcing a person to consent to obtaining his organs and (or) tissue for transplantation
- 55 **KHUDAYKULOV FERUZBEK KHURRAMOVICH**  
The concept, nature and its characteristics of a socially dangerous action in criminal law

---

## 13.00.02 – THEORY AND METHODOLOGY OF EDUCATION AND UPBRINGING (BY FIELDS)

- 66 **ZIYAMUKHAMEDOVA SHAKHNOZA TOLKUNOVNA**  
Homonymy between the word forms with affixes -la + -sh and -lash

---

## TEACHING LEGAL SCIENCES

- 77 **ABDURASULOVA KUMRINISA RAIMKULOVNA, UMIRZAKOV BEGZOD ATABOEVICH**  
The emergence of the science of criminology, actual tasks and development prospects

Kelib tushgan / Получено / Received: 03.05.2024  
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 17.05.2024  
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.06.2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.3./UCEZ9773  
UDC: 343(045)(575.1)

## JINOYAT HUQUQIDA IJTIMOIIY XAVFLI HARAKAT TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA UNING BELGILARI

**Xudaykulov Feruzbek Xurramovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Jinoyat huquqi, kriminologiya  
va korrupsiyaga qarshi kurashish  
kafedrası professori v.b.,  
yuridik fanlar doktori (DSc)  
ORCID: 0000-0002-4940-3762  
e-mail: dr.profi114@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ijtimoiy xavfli harakat tushunchasi, uning tuzilishi va, belgilari atroflicha o'rganilgan. Ijtimoiy xavfli harakatning jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida e'tirof etilishi va u haqida jinoyat huquqi nazariyasi olimlari tomonidan bildirilgan fikrlar, qarashlar yoritilgan. Bundan tashqari, jinoyat huquqi nazariyasida mavjud konsepsiyalar asosida ijtimoiy xavfli harakatning ifodalanishi va ularning o'ziga xos xususiyatlari ketma-ket tavsiflab berilgan. Shu bilan birga, jinoyat tarkibining zaruriy belgisi bo'lgan ijtimoiy xavfli harakat tushunchasi ishlab chiqilishida zamonaviy jinoyat huquqi nazariyasining umumiy va maxsus belgilarining o'ziga xos ahamiyati bayon qilingan. Jumladan, ushbu maqolada tadqiq etishning mantiqiylik, tizimlilik, mantiqiy-yuridik, qiyosiy-huquqiy metodlaridan keng foydalanilgan. Deduksiya metodi asosida jinoyat tarkibining zaruriy belgisi bo'lgan ijtimoiy xavfli harakatning tabiati, tuzilishi va belgilari tadqiq etilgan hamda u to'g'risidagi jinoyat huquqida mavjud nazariy-ilmiy qarashlar o'z aksini topgan. Shuningdek, asosiy e'tibor jinoyat tarkibining zaruriy belgisi bo'lgan ijtimoiy xavfli harakat tushunchasi, tabiati, belgilari va tuzilishi, shu bilan birga, ijtimoiy xavfli harakatning o'ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyati hamda u bilan bog'liq nazariy va amaliy muammolarga qaratilgan. Jinoyat huquqi doktrinasi va unda mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlil etilib, bu borada asosli nazariy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** jinoyat tarkibi, zaruriy belgi, ijtimoiy xavfli harakat, umumiy belgi, maxsus belgi, obyektiv qonuniyatlar, jinoyat-huquqiy ahamiyati.

### ПОНЯТИЕ, СУЩНОСТЬ И ПРИЗНАКИ ОБЩЕСТВЕННО ОПАСНОГО ДЕЯНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРАВЕ

**Худайкулов Ферузбек Хуррамович,**  
доктор юридических наук (DSc),  
и. о. профессора кафедры «Уголовное право,  
криминология и противодействие коррупции»  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье подробно раскрыты понятие общественно опасного деяния, его структура и признаки. Освещается признание общественно опасного деяния

необходимым признаком состава преступления и высказываемые об этом мнения и взгляды учёных-теоретиков уголовного права. Кроме того, на основе существующих понятий последовательно описывается сущность общественно опасного деяния и его специфика в теории уголовного права. Вместе с тем при разработке понятия общественно опасного деяния, являющегося необходимым признаком состава преступления, изложена специфическая значимость общих и специальных признаков в современной теории уголовного права. В частности, в данной статье широко использованы логический системный, логико-правовой, сравнительно-правовой методы исследования. На основе дедуктивного метода исследования изучены характер, структура и признаки общественно опасного деяния, являющиеся необходимым признаком состава преступления, а также отражены существующие в уголовном праве теоретико-научные взгляды на них. Также основное внимание уделяется не только понятию, характеру, признакам и структуре общественно опасного деяния, являющегося необходимым признаком состава преступления, но и конкретному уголовно-правовому значению общественно опасного деяния и связанным с ним теоретическим и практическим проблемам. Была проанализирована доктрина в уголовном праве и имеющиеся научные исследования, выработаны обоснованные теоретические предложения и рекомендации по этому поводу.

**Ключевые слова:** состав преступления, необходимый признак, общественно опасное деяние, общий признак, специальный признак, объективные закономерности, уголовно-правовое значение.

## THE CONCEPT, NATURE AND ITS CHARACTERISTICS OF A SOCIALLY DANGEROUS ACTION IN CRIMINAL LAW

**Khudaykulov Feruzbek Khurramovich,**

Tashkent State University of Law,  
Acting Professor of the Department of Criminal Law,  
Criminology and Anti-Corruption,  
Doctor of Science in Law (DSc)

**Abstract.** In this article, the concept of a socially dangerous movement, its structure, and signs are studied in detail. The recognition of a socially dangerous act as a necessary sign of the criminal structure and the opinions expressed by the scholars of the theory of criminal law about it are highlighted. In addition, on the basis of existing concepts in the theory of criminal law, the expression of socially dangerous actions and their specific characteristics are described in a series. At the same time, the specific importance of the general and special features of the modern theory of criminal law in the development of the concept of socially dangerous action, which is a necessary sign of the criminal structure, is described. In particular, logical, systematic, logical-legal, and comparative-legal methods of research are widely used in this article. Based on the deduction method of, the nature, structure, and signs of the socially dangerous act, which is a necessary sign of the crime structure, have been studied, and the theoretical and scientific views about it in criminal law have been reflected. Also, the main attention is focused on the concept, nature, signs, and structure of a socially dangerous act, which is a necessary sign of the criminal structure, and at the same time, on the specific criminal-legal significance of a socially dangerous act and the theoretical and practical problems related to it. The doctrine of criminal law and existing scientific research are analyzed, and reasonable theoretical suggestions and recommendations are developed in this regard.

**Keywords:** corpus delicti, necessary sign, socially dangerous act, general sign, special sign, objective laws, criminal-legal significance.

## Kirish

Jinoyat qonunchiligiga ko'ra, "Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi" (JK 14-m. 1-q.). "Demak, qonunda berilgan ta'rifdan jinoyatga: jazolash tahdidi ostida jinoyat qonuni bilan taqiqlangan qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ni aybli sodir qilish deb ta'rif berish mumkin" [1, 26-b.].

JK 14-moddasiga ko'ra, ijtimoiy xavfli qilmish bevosita harakat yoki harakatsizlik shaklida bo'ladi. Biroq ushbu moddada harakat yoki harakatsizlikning qonunda nazarda tutilgan ta'rif, talqini keltirilmagan. Harakat yoki harakatsizlik tushunchasini quyidagicha ifodalash mumkin: "Ijtimoiy xavfli xulq-atvorning shakli sifatida jinoiy harakat yoki harakatsizlikka ta'rif berish jinoyat huquqi doktrinasining asosiy vazifasi hisoblanadi. Jinoyat kodeksi ijtimoiy xavfli qilmishning ikkita shakl: faol (aktiv) shakli – harakat va nafaol (passiv) shakli harakatsizlik" [2, 130-b.]. ifodalaydi

Bizga ma'lumki, jinoiy qilmish muayyan jinoyat tarkibi bo'yicha kvalifikatsiya qilinganida uning shakli haqida so'z yuritiladi. Ushbu qilmish harakat yoki harakatsizlikda sodir etilganligi aniqlanishi lozim. Bunday aniqlash jinoyatning to'g'ri kvalifikatsiya qilinishi va huquqiy baho berilishini ta'minlaydi. "Noto'g'ri kvalifikatsiya qilish o'z o'rnida davlatning jinoyat-huquqiy sohasidagi siyosatining amalga oshmay qolishiga, jinoyat qonuni prinsiplarining buzilishiga, odil sudlovning amalga oshirilmasligiga, shuningdek, sud statistikasining noto'g'ri yuritilishiga olib keladi" [3, 26-b.].

## Material va metodlar

Maqolada tadqiq etishning mantiqiylik, tizimlilik, induksiya, deduksiya, qiyoslash, tasniflash, umumilmiiy va maxsus usullari, ya'ni qiyosiy-huquqiy, tahliliy, mantiqiy-yuridik va boshqa metodlaridan keng foydalanilgan. Shu bilan birga, xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligini tizimli o'rgangan holda, ijtimo

moiy xavfli harakat bilan bog'liq amaldagi jinoyat kodeksi normasi takomillashtirilgan.

## Tadqiqot natijalari

Jinoyat huquqi nazariyasi va ilmiy, monografik tadqiqotlarda ijtimoiy xavfli harakatga turlicha ta'rif berilgan. Jumladan, V.N. Kudryavsev, "Jinoiy harakat joy, vaqt va holat sharoitlarida ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof bo'lgan shaxsning tashqi jinoiy xulq-atvoridir" [4, 71-b.]. Ushbu ta'rif nafaqat jinoiy harakat, balki jinoiy harakatsizlikka ham tegishlidir.

M.I. Kovalev va P.T. Vaskovlarning ta'kidlashicha, "jinoiy jazoga sazovor harakat inson jinoiy xulq-atvorining tashqi ko'rinishi bo'lib, atrof-muhitda ro'y beradigan voqea va hodisaga faol (aktiv), ongli aralashuvdan iborat ichki kechinmalar emas, balki inson tana harakatining sodda bo'lmagan murakkab yig'indisidir" [5, 40-41-b.].

Biz fikrga qo'shila olmaymiz, chunki jinoiy harakatga berilgan yuqoridagi ta'rif uning boshqa belgilarini ochib berolmaydi. Ushbu ta'rif harakatni harakatsizlikdan ajratib (chegaralab) beradi xolos.

A.N. Traynin fikricha, "jinoyat-huquqiy ma'noda harakat nafaqat sifat, balki miqdor jihatidan ham tana harakatidan farq qiladi... Tana harakatidan farq qiluvchi jinoyat-huquqiy ma'nodagi harakatning sifat jihatidan u uchun zaruriy bo'lgan belgilar: aqli rasolik, yengib bo'lmas kuchlar ta'siri ostida jismoniy yoki ruhiy majburlash natijasida sodir etilmaganligi tushuniladi" [6, 135–136-b.].

M. Rustamboyev: "Jinoiy harakat – bu tana harakatlari, shu bilan birga, tana harakatlari orqali tashqi dunyo predmetlari, tabiat kuchlari va ne'matlari, shuningdek, boshqa shaxslar vositasida jinoyat sodir qilinishi, jinoyat obyektiga faol ta'sirning yo'naltirilganligi, ya'ni jinoyat qonuni muhofazasidagi ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishning faol ko'rinishidir" [7, 162-b.], – deb ta'kidlaydi.

M. Usmonaliyev va P. Bakunov nazdida "ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat tarkibining zaru

riy belgisi sifatida o'z mazmuniga ko'ra aniq va murakkab bo'lishi kerak. Har bir qilmish inson a'zolarining bir qancha harakatlari tufayli sodir etiladi. Masalan, nomusga tegish jinoyatida avvalo jabrlanuvchiga zo'rlik ishlatilib, uning qarshiligini sindirib, so'ng jinsiy aloqa qilinadi va hokazo".

X. Abzalova: "Ijtimoiy xavfli (jinoiy) qilmish – bu jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan munosabatlarga tajovuzdir. Ijtimoiy xavfli qilmish harakat – faol xulq-atvor, harakatsizlik – kerakli harakatni amalga oshirmaslik shaklida bo'lishi mumkin. Ayrim jinoyatlar harakat bilan ham, harakatsizlik bilan ham sodir etilishi mumkin", deb hisoblaydi.

Bizningcha, tana harakatlari jinoiy harakatning aynan jismoniy belgisini ifodalaydi. Jinoiy harakat shaxs tana a'zosi bilan qilinadigan muayyan harakatlar tizimi, harakatlar kompleks yig'indisidir.

N.F. Kuznetsovaning fikricha, "Jinoiy harakat ijtimoiy xavfli bo'lishi lozim. Agar harakat obyektiv ijtimoiy xavfli bo'lmasa, sababiy bog'lanish haqidagi har qanday tadqiqotlar tugatilishi lozim" [8, 36–37-b.].

Jinoyat huquqi doktrinasida harakatga ta'rif berishda ikkita yo'nalishda ilmiy yondashuvlar bayon qilingan. Birinchi yo'nalish bo'yicha harakat – shaxs jinoiy xulq-atvorining harakati yoki muayyan bir hodisaga shaxs aralashuvi deb ta'kidlansa, yo'nalishda mazkur harakatga irodaviy elementlar aralashtirilib, uning irodaviy xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Yuqorida keltirilgan ta'rif va belgilar to'g'ri izohlangan. Ammo shuni aytish lozimki, harakatga berilgan ushbu ta'rif va belgilar uning to'liq tuzilishi va xususiyatlarini ikkinchi ochib berolmaydi.

Tadqiqot ishimizda, birinchi navbatda, jinoiy harakatning tashqi xususiyatini tadqiq etish maqsadga muvofiq. Jinoiy harakatning belgilarini shartli ravishda quyidagilarga bo'lish mumkin:

1. Umumiy maxsus belgilar: a) jismoniy-ruhiy (psixofizik) belgilar: onglik va

irodaviylik; faol (aktiv)lik; tana harakatlari; tashqi kuchlar va obyektiv qonuniyatlar.

2. Maxsus o'ziga xos belgilar: a) ijtimoiy xavfli; b) huquqqa xiloflik.

Ijtimoiy xavfli harakatsizlikning xususiyatlarini ochib berishda dalil talab qilinsa, ijtimoiy xavfli harakatning xususiyatlarini ochib berishda uning asosiy belgisi sifatida onglik va irodaviylik aralashtirilganligiga duch kelamiz.

Jinoyat huquqi doktrinasida, amalda barcha ilmiy tadqiqot ishlarida jinoiy harakatning onglik va irodaviylik xususiyati ko'rsatiladi.

M. Usmonaliyev va P. Bakunovlar fikricha, "jinoyatning obyektiv tomonini ifodalovchi harakat yoki harakatsizlik ijtimoiy xavfli bo'lishi bilan birga irodaviy ham bo'lishi kerak, ya'ni kishi irodasi shunday qilmishni sodir etishga yo'l qo'ygan bo'lishi zarur. Agarda shaxsning qilmishi uning ongi bilan boshqarilmagan bo'lsa, oqibat uning irodasi natijasi bo'la olmaydi" [9, 173-b.].

M.X. Rustamboyev: "Onglik – qilmishni obyektiv tomondan tavsiflovchi belgisi sifatida shaxsning qilmish sodir qilishni ongli nazorat qilishi, ya'ni shaxsda fiziologik va jismoniy jihatdan bunday nazoratni amalga oshirish imkoniyatining mavjudligini anglatadi", – deb ta'kidlaydi.

X. Abzalova: "Jinoiy g'ayrihuquqiy harakat shaxsning ongli, irodaviy, faol ijtimoiy xavfli xulq-atvoridir. Xulq-atvorning faolligi deganda, aynan jinoyat obyektiga turli yo'llar bilan ta'sir etishda u yoki bu jismoniy harakatni amalga oshirish tushuniladi", degan fikrni ilgari suradi.

M.P. Merkushevning fikricha, "Insonning xulq-atvori muayyan hodisaning sababchisi ekanligi haqida gapirilganda, shaxsning sodir etgan harakati, uning o'ylari natijasi ekanligini tushunish lozim" [10, 5-b.]. Darhaqiqat, jinoiy qilmish ham tashqi va ichki tomonlarga ega bo'lib, tashqi tomon jismoniy va ichki

tomon esa ruhiy jihatlarni ifodalaydi. Ammo jinoyat huquqida jinoiy qilmishning ushbu tomonlarini obyektiv va subyektiv tomonlarga ajratib alohida o'rganish qabul qilingan.

I.S. Samoshenko: "Har qanday huquqbuzarlik – bu subyektiv va obyektiv holatlarning organik bir butunligidir. Ammo nazariy tahlilda ularni subyektiv va obyektiv tomonlarga bo'lishga to'g'ri keladi. Bu bo'linishlarsiz huquqbuzarlik mohiyatini tushunish mumkin emas" [11, 29–40-b.], – deb ta'kidlaydi.

Yuqoridagi mualliflar fikriga xulosa qilgan holda aytish lozimki, tafakkuriy va irodaviy holatlarning mavjud emasligini jinoiy qilmish bilan bog'lamaslik kerak. Ularni asosan jinoyat tarkibi subyektiv belgisi bo'lgan ayb bilan bog'lash lozim. Ma'lumki, aybning mavjud emasligi jinoiy javobgarlikni istisno etadi.

#### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Faollik (aktivlik) jinoiy harakatning umumiy belgilaridan biri bo'lib, u atrof-muhitga bo'lgan faol ta'sirni anglatadi.

G.V. Timeyko: "Inson harakati qanday ko'rinishda namoyon bo'lmasin va qanday xususiyat kasb etmasin, o'zida har doim tashqi xususiyatlari bilan tananing mexanik harakati sifatida namoyon bo'ladi. Natijada bu holat bir harakat shaklining boshqasiga xilma-xil tarzda o'tishi va tashqi dunyo (atrof-muhit)da turli o'zgarishlarga olib keladi" [12, 136-b.], – deb ta'kidlaydi.

M.X. Rustamboyev, M. Usmonaliyev va P. Bakunovlar fikricha, "harakat inson xulq-atvorining faol shaklini ifodalaydi. Umumiy tushunishga ko'ra, bu obyektiv olamdagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan tana a'zolarining harakati, tashqi ko'rinishidir". Demak, har qanday jinoiy harakat asosida inson tanasining harakatlari yotadi.

V.N. Kudryavsev fikricha, "Jinoiy qilmish (xulq-atvorning faol shakli) tashqi imo-ishora shaklida (masalan, haqorat qilishda) yoki so'zlarni ifodalash ko'rinishida (masalan, qo'rqitishda) yoxud aksariyat hollarda boshqa odamlar yoki tashqi dunyoning turli predmetlariga jismoniy ta'sir ko'rinishida uchray-

di (masalan, o'g'irlikda narsalarni olish, qasddan odam o'ldirishda to'pponcha tepkisini bosish va boshqalar)".

L.D. Gauxmanning ta'kidlashicha, "harakat inson qodir bo'lgan har qanday tana harakatida, xususan, boshqa odamlar yoki tashqi dunyoning boshqa predmetlariga ta'sir qilishda ifodalanishi mumkin. U jonli yoki jonsiz, jismoniy mushaklar kuchlaridan foydalanib, imo-ishora, og'zaki yoki yozma nutqda namoyon bo'ladi" [13, 89-b.].

J.A. Ibrohimov fikricha, "terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o'quvdan o'tish, chiqish yoki harakatlanish jinoyatini sodir etish usullari JK 1552-moddasi nomasida nazarda tutilgan tashqi faol jinoiy harakatlar (o'zi uchun ayon bo'lgan o'quvdan o'tishi, jinoyatlarni sodir etish bilimi, amaliy mahorati, ko'nikmalarini egallashi va boshqalar) hisoblanadi" [14, 83-b.]. Bizningcha, ushbu jinoyatda yuqorida keltirilgan harakatlar jinoyat sodir etish usullari emas, balki tashqi faol jinoiy harakatlardir.

Shuningdek, "harakat faqat tana harakatlariidan iborat" degan fikr jinoyat huquqi doktrinasida barcha olimlar tomonidan salbiy ilmiy yondashuv bayon qilingan.

V.N. Kudryavsev: "Jinoiy qilmish tashqi tomondan alohida tana harakatlaridangina iborat bo'lmasdan, u odatda harakatlar majmui tarzida ifodalanadi..." [4, 67-b.], deydi. G.V. Timeyko uning ilmiy yondashuvini qo'llab-quvvatlagan holda: "Harakat... bir butun birlikda namoyon bo'ladigan qilmish (akt) yoki jinoiy xulq-atvor qilmish (akt)dagi bir nechta tana harakatlaridan iborat bo'ladi" [15, 39-b.], deb ta'kidlaydi.

Jumladan, jinoyat ishlari bo'yicha Xo'jabod tumani sudi 2022-yil 24-avgustda D.X.ga nisbatan JK 97-m. 2-q. "i" bandi bilan hukm chiqargan. Sud hukmiga ko'ra, marhuma N.M. sudlanuvchi D.X. bilan qarz yoki boshqa mulkiy majburiyatlarni bajarish masalasida hech qanday munosabati bo'lmagan holda akasi E.J. o'rtalaridagi kelishuv yuzasidan sudlanuvchi D.X.dan akasini topib

berishini talab qilib, akasi bilan bog'liq o'rtalaridagi munosabat yuzasidan o'zaro janjallashib qoladi, D.X janjal vaqtida N.M.ning yuz qismiga qo'li bilan urib yiqitadi, va xonadagi xo'jalik pichog'i bilan uning old o'ng ko'krak qafasiga ikki marotaba va orqa o'ng kurak sohasiga bir marotaba qasddan urib, o'girtan jarohati yetkazadi. Natijada N.M. voqea joyida vafot etadi. Yuqori instansiya sudining ajrimi bo'yicha Jinoyat ishlari bo'yicha Xo'jaobod tumani sudining 2022-yil 24-avgustdagi D.X.ga nisbatan chiqargan hukmi o'zgartirilgan va D.X.ning harakati JK 97-moddasi 2-qismi "i" bandidan 97-moddasining 1-qismiga qayta kvalifikatsiya qilingan [16].

Yuqoridagi misoldan ko'rinib turibdiki, qasddan odam o'ldirishda nafaqat jabrlanuvchini hayotdan mahrum qilishga bevosita qaratilgan harakatlar, masalan, qo'l, oyoq va turli predmetlar bilan urish, balki jinoiy oqibatga aloqador bo'lgan boshqa harakatlardan ham iborat bo'ladi. Ularning barchasi qasddan odam o'ldirish jinoyat tarkibi obyektiv tomoni elementlari va belgilari hisoblanadi. Bunday holatda sudlanuvchi D.X.ning harakatlarini marhuma N.M.ni tamagirlik niyatida o'ldirganlik, deb baholab bo'lmaydi.

Harakat deganda aybdor shaxs tomonidan qilingan ijtimoiy xavfli va qonunga xilof tana harakatlari tushuniladimi yoki tana harakatlari bilan birga boshqa tashqi obyektiv qonuniyatlar yoki kuchlar, harakatlar majmui tushuniladimi degan savolga jinoyat huquqi nazariyasida turlicha ilmiy qarashlar va yondashuvlar mavjud.

Jumladan, N.D. Durmanov, A.A. Piontkovskiy, B.S. Volkov, M.I. Kovalev va P.T. Vaskovlar: "Jinoiy harakat nafaqat inson tana harakatlarini, balki inson foydalangan tegishli kuchlar va qonunga xilof harakatlarni qamrab oladi" [17–19], – deb ta'kidlashganlar.

Jinoiy harakatni tadqiq etishda unga boshqa shaxsning harakatini qo'shish nazarda tutiladi. O'z-o'zidan savol tug'iladi, darhaqiqat, jinoiy harakatda obyektga ta'sir jarayoniga

boshqa shaxs harakatini qo'shsa bo'ladimi? Ushbu holatning muayyan ma'no-mazmun kasb etmaganligi (absurdligi) to'g'risida jinoyat huquqi doktrinasida ilmiy qarashlar mavjud.

P.I. Grishhev fikricha, "Harakatga boshqa shaxslar xulq-atvori, hayvonlar xatti-harakatlari, mexanizmlar ishi, organizmga zaharlarining ta'siri va boshqalarni ham kiritish kerak".

L.D. Gauxman ta'kidlashicha, "tashqi dunyo predmetlari, tabiat kuchlari va qonuniyatlari, boshqa shaxslar harakatlaridan foydalalanib sodir etilgan harakat chegarlari bo'lmagan cheksiz turli faoliyat turlaridan iborat bo'lishi mumkin".

Ammo jinoiy harakatning obyektga ta'siri jarayonida obyektiv qonuniyatlar ishlamasligi, ya'ni jarayonda ishtirok etmasligi mumkin. Misol uchun, jabrlanuvchiga berilgan zaharga qarshi uning organizmi kurashishi mumkin, shuningdek, xo'jayinining buyrug'iga ko'ra boshqa jabrlanuvchiga tashlangan it uni tishlash o'rniga uning qo'llarini yalashi mumkin.

Yuqoridagi ilmiy qarashlarga qo'shilmaymiz. Sodir qilingan ijtimoiy xavfli harakatga boshqa shaxs harakatini qo'shish noto'g'ri xulosaga olib keladi deb hisoblaymiz. Aynan ijtimoiy xavfli harakat tushunchasi boshqa shaxs harakati natijasida ro'y beradigan ijtimoiy xavfli oqibatdan kelib chiqadi degan xulosa turli tushunmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin.

B.S. Nikiforov fikricha, "Jinoiy oqibat bir vaqtning o'zida harakatga tegishli bo'ladi yoki tegishli bo'lmaydi..." [20, 436-b.].

Boshqa guruh olimlar: N.F. Kuznetsova, V.N. Kudryavsev, T.V. Sereteli, V.P. Malkov, P.I. Grishayevlar: "Inson harakati shaxs tana harakati bilan cheklanadi va nazarda tutilgan kuchlar va qonuniyatlar harakat tushunchasi (ta'rifi)ga kirmaydi", – deb ta'kidlashadi.

V.N. Kudryavsevning fikricha, "harakat shunday harakatlar bilan tugaydiki, u orqali inson nazarda tutilgan kuchlar va vositalarga ta'sir qiladi, mexanizmlarning keyingi

ishlashi, tabiat kuchlari harakati, jinoyatchi shaxs tomonidan foydalanilgan uchinchi shaxslar harakati jinoyat obyektiv tomoni-ning davomi hisoblanadi”.

Bizningcha, jinoiy harakat sodir etilayotgan paytda shaxs atrof-muhit hodisalari rivojlanishining obyektiv ravishda mavjud bo'lgan muayyan qonuniyatlaridan foydalanishida uning harakati hodisalar rivojlanishiga turtki bo'lib xizmat qiladi. Shaxsda qonuniyatlar xususiyatining rivojlanishida ro'y bergan o'zgarishlarni nazorat qilish va to'g'rilash imkoniyati bo'lmaydi. Shaxsning harakati jinoiy kuchga bo'lgan munosabatining tashqi zararli harakati boshlanishi bilan sodir etilgan, deb topilishi kerak.

Masalan, shaxs jabrlanuvchini katta tezlikda kelayotgan yengil avtotransport vositasi ostiga itarib yuborishida mexanizm (yengil mashina)ning harakati ham, avtotransport vositasi haydovchisining xulq-atvori ham jinoyat subyekti harakatining usuliga kirmaydi. Ushbu jinoiy tajovuz usulida harakatning haqiqiy tamom bo'lish vaqti aybdor shaxs jabrlanuvchini yengil avtotransport vositasi ostiga itarib yuborish vaqtidir. Avtotransport vositasi harakati va uning haydovchisi harakatini tadqiq etishda subyekt xulq-atvori va ro'y bergan ijtimoiy xavfli oqibat orasidagi sababiy bog'lanish aniqlanishi lozim.

Shaxs jinoiy harakatni sodir etish paytida tashqi kuchlar va obyektiv qonuniyatlardan jinoyat obyektiga zarar yetkazish maqsadida foydalangan bo'lsa, uning harakati to'g'ri qasddan sodir etilgan hisoblanadi. Shuning uchun ijtimoiy xavfli harakat va oqibat o'rtasidagi sababiy bog'liqlik jinoyat subyektiv tomoni belgilarini belgilashda aniqlanishi lozim.

Yuqoridagi misolda shaxs jinoiy harakatining haqiqiy tamom bo'lish vaqti bilan kelib chiqqan oqibat o'rtasidagi vaqt muhim ahamiyat kasb etmaydi. “Jinoiy harakat – tashqi kuch/obyektiv qonuniyat – vaqt – bevosita sababiy bog'lanish – jinoiy oqibat” algoritmi (ketma-ketlik)idagi hodisa sodir bo'ladi.

O'z-o'zidan savol tug'iladi. Jinoiy harakat bilan kelib chiqqan oqibat o'rtasidagi vaqt oralig'i uzoq bo'lsa-chi? Ushbu masala yuqoridagiday hal qilinadimi? Masalan, aybdor A. jabrlanuvchi B.ni sovg'otib, muzlab o'lishi uchun ko'l ichiga bog'lab qo'yishi yoki hamshira B. bemor V.ning stoli ustida turgan dorini almashtirib qo'yishida sodir etilgan jinoiy harakat bilan kelib chiqqan oqibat o'rtasidagi vaqt oralig'i ahamiyatga egami degan muammoli masalaga duch kelinadi.

Yuqoridagi holatlarda jinoiy tajovuz haqiqiy faktik tamom bo'lish payti harakatlar sodir etilgan vaqt hisoblanadi. Jinoiy harakatni sodir etish vaqtida qo'llangan atrof-muhitning obyektiv qonuniyatlari sababiy bog'lanishga ta'sir qiluvchi omillar bo'lib, ular jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar mexanizmini aniqlashda topilishi lozim. Masalan, ob-havo holati, hamshira harakatlari va boshqalar.

Ammo yuqorida bildirilgan ilmiy yondashuv ham ancha munozarali. Masalan, A. B.ni avtotransport vositasi urib ketishida “Ulovni boshqargan haydovchi tana harakatlari, avtotransport vositasi harakatlari va tabiat qonuniyatlaridan, ya'ni obyektiv haqiqatdan ajratish mumkinmi?” degan masalaga duch kelinadi. Ushbu holatda jinoiy harakat bilan obyektiv qonuniyatlarni ajratishning imkoni yo'q.

Albatta, tabiat kuchlari, tashqi obyektiv kuchlar va qonuniyatlarsiz jinoiy harakat tushunchasi ta'rifini aniqlash mumkin emas. Ular jinoiy harakat tushunchasini ham, jinoiy harakatsizlik tushunchasini ham aniqlashga taalluqli bo'ladi.

Jinoyat huquqi nazariyasida jinoiy harakat bilan birga bo'ladigan tashqi obyektiv kuchlar va qonuniyatlar murakkab masala hisoblanadi. Shuningdek, mazkur masala olimlar tomonidan noaniq deb e'tirof etiladi. Uning bunday e'tirof etilishi mazkur masalaning yechimi mavjud emasligini anglatmaydi.

Jinoiy harakatga ta'rif berish uchun quyidagi masalani qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchisi, ijtimoiy xavfli harakat jis-

moniy tana harakatlari yoki og'zaki yoxud yozma harakatlar, imo-ishoralardan iborat bo'ladimi? Ikkinchisi, ijtimoiy xavfli harakat harakatlar tizimi yoki kompleks harakatlarni majmuidan iborat bo'ladimi? Uchinchisi, yuqoridagilar bilan birga shaxs foydalangan tashqi obyektiv kuchlar va qonuniyatlarni ham qamrab oladimi?

Yuqoridagi savollarning bu ko'rinishda berilishiga tahlil qilingan sud-tergov amaliyoti materiallarida ko'rsatilgan jinoyat harakatlarda mavjud harakat kompleks harakatlar yig'indisidan iborat bo'lishi, harakatlar tizimi hamda tashqi obyektiv kuchlar va qonuniyatlardan iborat hodisalar yig'indisidan iborat bo'lishi asos bo'lib xizmat qildi. Ya'ni savol tasodifiy emas, balki amaliyot natijalariga asoslangan holda berildi.

Jinoyat huquqi nazariyasida ijtimoiy xavfli harakat faqat jismoniy tana harakatlaridan iborat bo'lishi yoki u harakatlar yig'indisi, shu bilan birga, tashqi obyektiv qonuniyatlarni va kuchlar majmuidan iborat bo'lishi yuzasidan aniq bir to'xtamga kelish lozim.

Jinoyat huquqi nazariyasida mavjud ilmiy tadqiqotlardagi nuqtayi nazarlar, olimlarning ilmiy yondashuvlari, shuningdek, jinoyat ishi materiallari va sud hukmlarini tahlil qilish orqali quyidagi xulosaga keldik. Biz uni quyidagi mantiqiy matematik formula algoritmi (ketma-ketlik)da ifodalashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:  $A = B + C$ , bunda  $A$  – jinoyat harakat;  $B$  – tana harakatlari;  $C$  – tashqi obyektiv tabiiy kuchlari va qonuniyatlari.

Yuqoridagi xulosaga ko'ra tana harakatlari va tashqi obyektiv qonuniyatlarni kuchlar ijtimoiy xavfli harakat hisoblanmaydi. Ularga bir butunlikda jinoyat xulq-atvor sifatida qaralsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ammo harakat tushunchasining jinoyat xulq-atvor tushunchasiga o'zgartirilishida harakatning undan farq qiluvchi chegarasini aniqlash masalasi namoyon bo'ladi. Ba'zi olimlar ular o'rtasida farqlovchi chegara mavjud deb hisoblashadi.

Jinoyat harakat va harakatsizlikni tashqi obyektiv (tabiiy) kuchlar va qonuniyatlardan ajratish imkoni bo'lgandagina shaxsning sof harakati yoki harakatsizligi haqida gapirish mumkin bo'ladi, buning esa iloji yo'q. Har qanday sodir etilgan harakat va harakatsizlik shaklidagi ijtimoiy xavfli qilmish tashqi obyektiv qonuniyatlarni va kuchlar bilan birgalikda bo'ladi. Bu ularning jinoyat faoliyat tuzilishida mavjud bo'lishini anglatadi. Shuning uchun ularni jinoyat faoliyat tushunchasi qamrab oladi degan xulosaga kelish mumkin.

A. Arutyunov: "harakatning tugallanish vaqti uning JK Maxsus qismi moddalarini dispozitsiyalarida ifodalanishi bilan bog'liq va u sodir etilishi bilan (formal tarkibli jinoyat uchun) yoki jinoyat oqibatlar kelib chiqishi bilan (moddiy tarkibli jinoyat uchun) yoxud qilmishning ijtimoiy xavflilik yoki huquqqa xiloflik belgisining mavjud emasligi bilan belgilanadi" [21, 4-b.], – deydi.

Jinoyat harakatni muayyan shaklda tasniflashda uni quyidagi: jismoniy (energetik) va informatsion (ma'lumotli) turlarga bo'lish mumkin.

N.I. Panovning fikricha, "jismoniy yoki energetik harakat o'zida jinoyat tajovuzni amalga oshirish uchun jismoniy kuchlar, mushak kuchlaridan foydalanishni qamrab olishda ifodalanadi. Ushbu harakat har doim tashqi, moddiy dunyoning jismoniy sohadagi predmet, narsalarini o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi. Informatsion (ma'lumotli) harakat tegishli ma'lumot (informatsiya)ni boshqa shaxsga uzatishga qaratilgan bo'ladi va u og'zaki (verbal) shaklda, shuningdek, ma'lumot (informatsiya) tashuvchi turli harakatlar shakllarida, ya'ni ma'noli imo-ishora va ifodali harakatlar (mimika va pantomima)ni o'zida ifodalaydi" [22, 16-b.].

Jinoyat harakatni informatsion (ma'lumotli) turini milliy olimlarimizdan M. Usmonaliyev va P. Bakunovlar ham e'tirof etishadi. Ular "harakatning yana bir shakli og'zaki yoki yozma ravishda bajariladigan yoki turli imo-ishora orqali amalga oshiriladi-

gan harakatlar bo'lishi mumkin. Masalan, tuhmat (139-modda) va haqorat qilishni (140-modda) nashr qilish yoki ko'paytirilgan matnda yoki ommaviy axborot vositalari orqali sodir etilishi mumkin. O'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish (112-modda), o'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz – buzuv harakatlari qilish (129-modda) va hokazo jinoyatlar turli imo-ishoralar orqali sodir etilishi mumkin"ligini ta'kidlashadi.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar, qarashlar, tadqiqotlar va olimlarning fikr-mulohazalarini o'rgangan holda quyidagicha xulosa qilish mumkin: jinoiy harakat deganda JK bilan qo'riqlanadigan obyektlarga tashqi obyektiv qonuniyatlari bilan birgalikda zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishning real xavfini yuzaga keltiradigan shaxsning jismoniy tana harakatlari va harakatlar tizimi yig'indisi tushuniladi.

### **Xulosalar**

Ijtimoiy xavfli yoki harakatsizlikning belgilarini tavsiflashda milliy va xorijiy olimlar ilmiy ishlarini o'rgangan holda uning quyidagi belgilarini ajratamiz:

1) jinoiy harakatning umumiy belgilari: onglilik; irodaviylik; ixtiyoriylik; tashqi faol (aktiv)lik; murakkab xususiyatlilik (muayyan maqsadga erishish uchun foydalanilgan tabiat, tashqi obyektiv qonuniyatlari va kuchlari yig'indisidan iborat);

2) jinoiy harakatning maxsus belgilari: ijtimoiy xavflilik (moddiy belgisi); huquqqa xiloflik (yuridik belgisi)".

Olimlardan M.H. Rustamboyev, P. Bakunov, M. Usmonaliyev, A.F. Parfenov, G.P. Fletcher, O. Holmes, P.H. Robinson, I. Renneberg, V.N. Kudryavsev, M.I. Kovalev, N.F. Kuznetsova, T.V. Sereteli, V.B. Malininlar jinoiy xulq-atvorning nafaol (passiv) shakli bo'lgan harakatsizlikni ikki turga: sof va aralash harakatsizlikka ajratishadi.

Yuqoridagi olimlarning ilmiy qarashlari va yondashuvlarini o'rgangan holda, quyidagilarni bayon qilamiz:

birinchidan, "ijtimoiy xavfli harakat" ijtimoiy xavflilik, huquqqa xiloflik, onglilik, ixtiyoriylik, irodaviylik belgilaridan tashqari "murakkab xususiyatga egalik" (muayyan maqsadga erishish uchun foydalanilgan tabiat, tashqi obyektiv qonuniyatlari va kuchlari yig'indisidan iborat) kabi zaruriy belgisiga ham egadir. Ma'lumki, ijtimoiy xavfli harakatga ma'lum bir tashqi obyektiv qonuniyatlar va kuchlarga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ular birgalikda jinoyat obyektiga zarar yetkazadi yoki zarar yetkazishning real xavfi ostida qoldiradi;

ikkinchidan, anglo-sakson huquq oilasidagi "actus reus – mens rea" konsepsiyasidan iborat jinoiy akt (qilmish)dagi harakat yoki harakatsizlikda ijtimoiy xavflilik, huquqqa xiloflik, onglilik, ixtiyoriylik, irodaviylik belgilari bilan birga murakkab xususiyatga egalik (muayyan maqsadga erishish uchun foydalanilgan tabiat, tashqi obyektiv qonuniyatlari va kuchlari yig'indisidan iborat) kabi zaruriy belgi ham mavjud bo'ladi;

uchinchidan, JK VIII bo'limidagi atamalarning huquqiy ma'nosida ijtimoiy xavfli harakat tushunchasining murakkab xususiyatga egalik kabi zaruriy belgisi ifodalanmagan;

Harakat ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof, ongli, irodaviy, ixtiyoriy, faol va murakkab xususiyatga egalik kabi zaruriy belgilari mavjud bo'lsagina, u jinoiy harakat bo'lishi, ya'ni muayyan jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega bo'lishi haqidagi ilmiy yondashuvlarning o'rganilishi asosida JK VIII bo'limi atamalarining huquqiy ma'nosida harakat tushunchasini quyidagicha bayon qilish taklif qilindi:

"Harakat – shaxsning ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof, ongli, irodaviy va murakkab xususiyatga ega tashqi faol xulq-atvori".

Mazkur ta'riflar AQSh (Nyu Jersi jinoyat odil sudlov kodeksi 2-bob), Germaniya, Kanada va boshqa xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida aks ettirilgan.

Sudyalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, izlanuvchi va olimlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovda JK VIII bo'lim "Atamalarining huquqiy ma'nosi"da harakatga berilgan ta'rifda huquqqa xiloflik, irodaviylik va murakkab xususiyatga egalik belgilari

ifodalanishiga zarurat bormi degan savolga ishtirok etgan respondentlarning 74,8 foizi bunday belgilarni kiritish kerakligini; 17,9 foizi bunday belgilarni kiritish zarur emasdegan fikrni bildirgan. Ularning 7,3 foizi boshqa javobni berishgan.

## REFERENCES

1. Jinoyat huquqi (Umumiy qism) [Criminal law. (General part)]. H. Ochilov (Ed.). Tashkent, Adolat Publ., 2020, p. 26.
2. Ugolovnoye pravo Rossiyskoy Federatsii. Obshaya chast' [Criminal law of the Russian Federation. General part]. B.V. Zdravomyslov (Ed.). Moscow, 1999, p. 130.
3. Ikramov Sh.T., Kabulov R., Otajonov A. et al. Jinoyat huquqi. Maxsus qism [Criminal law. Special part]. Sh.T. Ikramov (Ed.). Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2016, p. 26.
4. Kudryavtsev V.N. Ob"yektivnaya storona prestupleniya [The objective side of the crime]. Moscow, Yuridicheskaya literatura Publ., 1960, p. 71.
5. Kovalev M.I., Vaskov P.T. Prichinnaya svyaz' v ugolovnom prave [Causality in criminal law]. Moscow, 1958, pp. 40–41.
6. Traynin A.N. Obscheye ucheniye o sostave prestupleniya [General doctrine of the elements of a crime]. Moscow, 1957, pp. 135–136.
7. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Jinoyat haqida ta'limot [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan. Doctrine of crime]. Tashkent, Military-technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018, vol. 1, p. 162.
8. Kuznetsova N.F. Izbrannyye trudy [Selected works]. St. Petersburg, Yuricheskiy Tsenter Press Publ., 2003, pp. 36–37.
9. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi. Umumiy qism [Criminal law. General part]. Tashkent, Nasaf Publ., 2010, p. 173.
10. Merkushev M.P. Voprosy prichinnoy svyazi v ugolovnom prave [Issues of causality in criminal law]. *Issues of Criminal Law and Process*, Minsk, 1958, p. 5.
11. Samoshenko I.S. O prichinenii vreda protivopravnym bezdeystviyem [On causing harm by unlawful inaction]. Moscow, *Academic Notes VIUN*, 1963, vol. 17, pp. 29–40.
12. Timeyko G.V. Ponyatiye i spetsificheskiye cherty prestupnogo bezdeystviya [Concept and specific features of criminal inaction]. Moscow, *Proceedings of VYUZI*, 1963, vol. 2, p. 136.
13. Gaukhan L.D. Kvalifikatsiya prestupleniy: zakon, teoriya, praktika [Qualification of crimes: law, theory, practice]. Moscow, YurInfoR Publ., 2001, p. 89.
14. Ibrohimov J.A. Terrorizm bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarlari [Criminal-legal and criminological aspects of combating crimes related to terrorism]. Tashkent, 2020, p. 83.
15. Timeyko G.V. Obscheye ucheniye ob ob"yektivnoy storone prestupleniya [General doctrine about the objective side of crime]. Rostov University Publ., 1977, p. 39.
16. Materials of court archive of Andijan region. 2022. Case No. 1-1715-2202/108. Pp. 54, 173, 23, 42–43.

17. Durmanov N.D. Ponyatiye prestupleniya [The concept of crime]. M.D. Shargorodsky (Ed.). Moscow, Academy of Sciences Publ., 1948, p. 54.
18. Piontkovskiy A.A. Ucheniye o prestuplenii [The doctrine of crime]. Moscow, 1961, p. 173.
19. Volkov B.S. Problema voli i ugodovnaya otvetstvennost' [The problem of will and criminal liability]. A.I. Levshin (Ed.). Kazan, Kazan Publ., 1965, p. 23.
20. Nikiforov B.S. Ob"yekt prestupleniya po sovetскому ugodnomu pravu [Object of crime according to Soviet criminal law]. Moscow, 1956, p. 426.
21. Arutyunov A. Ob"yektivnaya storona prestupleniya, sovershyonnogo v souchastii [The objective side of a crime committed in complicity]. *Criminal Law*, 2002, no. 2, p. 4.
22. Panov N.I. Sposob soversheniya prestupleniya i ugodnaya otvetstvennost' [Method of committing a crime and criminal liability]. Kharkov, Vishcha shkola, 1982, p. 16.